

INTERNATIONAL MEDICAL TERMS FROM FRENCH TO UZBEK LANGUAGE

Rajab Ostonovich BOBOKALONOV¹
Master of Bukhara State University

Abstract

This article discusses the international medical terms learned from French to Uzbek. It provides information on the reasons for the introduction of modern international medical terms, as well as their benefits.

Key words: Term, medical term, idioms, international words, neologism.

FRANSUZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA O‘ZLASHGAN BAYNALMINAL TIBBIY TERMINLAR

Rajab Ostonovich BOBOKALONOV¹
Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada fransuz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan baynalminal tibbiy terminlar xususida fikr-mulohaza yuritilgan. Bunda xalqaro, chetdan kirib kelgan zamonaviy tibbiy terminlarning so‘zlashish jarayoniga kirib kelish sabablari, hamda foydali tomonlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Termin, tibbiy atama, iboralar, xalqaro so‘zlar, neologizm.

O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1989 yilning 21 oktyabrida “Davlat tili haqidagi” Qonunning qabul qilinishi o‘zbek tili so‘z boyligining asosiy qatlamlaridan hisoblanmish terminologik leksikaga yangicha munosabatda bo‘lishni taqozo etdi. Bilamizki, o‘zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida turli xil elatlar bilan har tomonlama o‘zaro aloqada bo‘lgan. Ushbu aloqalar o‘zbek tiliga ma’lum darajada o‘z ta’sirini o‘tkazgan. O‘zaro ta’sir natijasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalardagi aloqalar sababli o‘zbek tilining so‘z boyligi oshishiga olib kelgan. Bunga sabab albatta tarixiy jarayonlarga borib taqaladi. Masalan: VII asrgacha bo‘lgan davrlarda yurtimizga bostirib kelgan ko‘pgina elatlar (Eron, Makedoniya, Eftalitlar, Turk xoqonligi) ning ta’sir doirasida o‘zbek tiliga ularning baynalminal so‘zlarining o‘zlashishi (*o‘zlashma so‘z* — bir tildan ikkinchi tilga o‘tgan so‘z) hamda aholi orasida amalda qo‘llanilishiga olib kelgan. VII asrdan keyingi davrlar bevosita arablarning yurtimizga bostirib kirishi hamda hukmronligi davrida arab tilining tilimizga ta’siri hamda yangi so‘zlarning o‘zlashtirilishiga olib kelganidir.

XIX asrning 2-yarmidan Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston chor Rossiyasining mustamlaka mamlakatiga aylanishi oqibatida Rus tilining o‘zbek tiliga ta’siri hamda rus tili orqali boshqa Yevropa tillardan (fransuz, italyan, nemis, ingliz, ispan) ko‘plab so‘zlar o‘zlashdi.

Rus tilidan o‘zbek tiliga so‘z kirishi ikki tarixiy davrni o‘z ichiga oladi:

1. XIX asrning 2-yarmidan XX asrning boshlarigacha bo‘lgan davr.
2. 1917 yildan keyingi davr.

Rus tili asosan ikki yo‘l orqali og‘zaki (turli xildagi kasb egalaring mahalliy aholi bilan

mulqot jarayoni) hamda yozma (gazeta, jurnal, kitob, xat yozishmalar jarayoni) tarzida o'zbek tiliga o'zlashgan.

G.V. Kolshanskiyning fikriga ko'ra, *til bir vaqtning o'zida shaxsning aqliy faoliyatining mahsuli sifatida ham, ushbu faoliyat shakli sifatida ham ishlaydi va uning mavjudligi aks ettirilgan ob'yektiv voqelikning aqliy til jarayoniga mos kelishiga (yetarliligiga) asoslangan bo'lishi kerak*.¹ Buyuk fransuz faylasuf yozuvchisi V. Gyugo fransuz tili borasida shunday deydi: *“Fransuz tili harakatsiz to'xtab qolgan til emas va hech qachon bunday bo'lmaydi. Hech bir til qotib qolmaydi, tillar xuddi dengizdek chayqalib turadi.”*²

Tilshunoslikda, xususan, etimologiya, leksikologiya va qiyosiy tilshunoslikda “o'zlashma so'z” (qarz olish) atamasi til uchun o'z leksikoniga boshqa tildan kelgan atamani kiritish jarayonini belgilaydi. O'zlashma so'z to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bo'lishi mumkin. O'zlashma so'z - bu neologizm va derivatsiya bilan bir qatorda ma'ruzachilar uchun o'z leksikalarini ko'paytirish vositalaridan biridir. O'zlashma so'z ma'lum ijtimoiy-tarixiy voqealar, savdo va madaniy aloqalar tufayli bir tildan ikkinchi tilga o'tib o'zlashadi. Masalan:

- fors-tojik tilidan o'zlashgan tibbiy terminlar – *filzahra* (zaradon – oshqozon og'rihi), *tabgirifta* (qon bosimi oshishi),
- arab tilidan o'zlashgan tibbiy terminlar – *tutqanoq* (nerv kasalligi), *moxuliy* (melanxoliya kasalligi), *lojuvard* (mineral modda), *yaraqoni asvad* (sariq kasalligi)
- rus tilidan o'zlashgan tibbiy terminlar – *мигрень* (migren - bosh og'rig'i),

O'zlashma so'zlar xalqlar va davlatlar o'rtasidagi aloqalar, munosabatlar natijasidir. O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi oqibatida ruscha va yevropacha so'zlar o'zbek tiliga kirib o'zlashdi. Rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan so'zlar ijtimoiy-siyosiy hayotga, sanoat, qishloq xo'jaligi, fan-texnika, tibbiyot, san'at, savdo, sport, harbiy sohaga doir tovush tomoni deyarli o'zgartirilmay ishlatiladigan o'zlashma so'zlar xalqaro so'zlardir.

Shunday o'zlashma so'zlar fransuz tilida ham uchraydi. Bunday so'zlar dastlabki davrda *neologizm* xarakterida, keyinchalik asta-sekin til qonuniyatlariga bo'ysunadi:

1. Fonetik jihatdan shakllanishi:

- a) *artère* (nf) → *артерия* → *arteriya*;
- b) *xérophtalmie* (nf) → *ксерофтальмия* → *kseroftalmiya*

2. Qo'shimcha qo'shish orqali:

- a) *amibe* (nf) → *амеба* → *amyoba + lar*

¹ « *Les emprunts français dans la langue russe moderne. Les raisons de la baisse des emprunts français dans la langue russe moderne*». Боровкова Наталья Николаевна, Байкова Анна. page 3 – 4.

² Kolshanskiy G.V. «Paralingvistika». Paperback: –January, 1, 2017.

b) *anti-acide (nf)* → *антацид* → *antatsid+lar*

3. Kalkalash orqali o'zlashishi :

a) *lèvre de lièvre* → *губы зайца* → *quyon lab*

b) *fente palatine* → *волчья пасть* → *bo'ri og'iz*

4. O'zlashgan so'zning moslashishi

a) *bronchite (nf)* → *бронхит* → *bronxit*;

b) *bactérie (nf)* → *бактерия* → *bakteriya*;

d) *coma (m)* → *кома* → *koma*;

5. Takror-takror qo'llanilishi tufayli uning yod so'z ekanligi sezilmasligi

a) *allergie (nf)* → *аллергия* → *allergiya*;

b) *épidémie (nf)* → *эпидемия* → *epidemiya*;

d) *grippe (nf)* → *грипп* → *gripp*;

e) *coronavirus (m)* → *коронавирус* → *coronavirus*

6. Kasb va sohaga oid internatsional (baynalminal) so'zlarning o'zlashishi:

a) *anatomie (nf)* → *анатомия* → *anatomiya*

b) *dermatovenerologie (nf)* → *дерматовенерология* → *dermatovenerologiya*

d) *oto-rhino-laryngologie (nf)* (ORL) → *отоларингология* (ЛОП) → *otorinolaringologiya*

e) *réanimation (nf)* → *реанимация* → *reanimatsiya*.

Tibbiy atamalarni quyida ko'rib chiqamiz:

Français	Russe	Ouzbek	Izoh
abcès	абсцесс	absess (<i>xuppos</i> , <i>gazak</i>)	bakteriya yoki boshqa infeksiya tufayli kelib chiqqan yiringli xalta.
allergie	аллергия	allergiya	atrofdagi narsalarga (ovqat, chang, dori-darmon va boshqalarga) o'ta manfiy sezgirlik. bu holatda odamda toshmalar toshish, chuchkirish, nafas qisish va eng og'ir holat shok kelib chiqishi mumkin.
amibe	амеба	amyoba	suv yoki ichakda yashovchi faqat mikroskop ostida ko'rinadigan juda kichik mavjudotlar. ular ich ketar, ich burug' (<i>dezinteriya</i>) va jigar abscesslariga olib kelishi mumkin.

abdomen	абдомин	abdomen (lot. qorin).	gavdaning ko'krakdan pastki qorin qismi.
aérosol	аэрозоль	aerozol	nafas yo'llariga sepiladi, odatda qalpog'ini ezganingizda dori sochiladi.
amputation (<i>nf</i>)	Ампутация	amputatsiya	tananing biror qismini kesib tashlash.
anemie	анемия	anemiya - (<i>kamqonlik</i>)	qon tarkibidagi qizil hujayralarning kamligi natijasida qonning suyuqlashishidan kelib chiqadigan kasallik. belgilariga charchash, rangning oqarishi va kam harakatlilik kiradi.
antibiotique	антибиотик	antibiotik	bakteriya orqali kelib chiqqan infeksiyalarga qarshi kurashuvchi dorilar.
aorte	аорта	aorta	yurakdan chiqib tanaga qon tarqatuvchi yo'g'on tomir.
appendice	аппендици т	appenditsit	katta ichakka qo'shilgan, barmoqchalik keladigan kichik ichakchening yallig'lanishi;
artère	артерия	arteriya (<i>qizil qon tomiri</i>)	yurakdagi qonni tanaga tarqatuvchi qon tomiri. arteriyada puls bo'ladi. vena(tomir) qonni yurakka qayta olib keluvchi tomirlarda puls bo'lmaydi.
ascaris	аскарида	askarida (<i>qurt</i>)	odamlarning ichaklarida yashovchi va noqulayliklar, qorin og'rig'i, quvvatsizlik va ba'zan ichakning to'silishiga olib keluvchi katta qurtlar.
athéroscléros e	атеросклер оз	ateroskleroz	organizmda turli sabablar tufayli kelib chiqadigan, kimyoviy (yog'simon) moddalar almashinuvining buzilishi va shu tufayli qon tomirlarining ichki qavatini shikastlab, jiddiy kasalliklarga (insult, infarkt) olib kelishi mumkin.
bactérie	бактерия	bakteriya	faqat mikroskop ostida ko'rinadigan va turli infeksiyon kasalliklarga olib keluvchi mikroblar.
bronchite	бронхит	bronxit	bronxlarning infeksiyalanishi (yallig'lanishi).

catabolisme	Катаболизм	katabolizm	tirik organizmlarda murakkab organik birikmalarning parchalanishidan iborat moddalar almashinuvi reaksiyalarining majmui;
dermatite	дерматит	dermatit	teri kasalliklarining bir turi.
dysenterie	дизентерия	dizenteriya (<i>ichburugʻ</i>)	shilimshiq va qonli ich ketish. U odatda infeksiyadan kelib chiqadi.
éclampsie	Эклампсия	eklampsiya	homiladorlik yoki tugʻruqdagi kutilmagan tutqanoq. homiladorlikdagi kech toksikoz oqibati.
embryon	эмбрион	embrion	endi rivojlanayotgan bolaning ona qornidagi shakli.
immunisation	иммунизац ия	imunizatsiya (<i>emlash</i>)	maxsus kasalliklardan saqlash uchun ishlatiladigan dorilar: <i>difteriya, qoqshol, koʻk yoʻtal, poliomielit, sil</i> va <i>qizamiq</i> kabilar.
épidémie	эпидемия	epidemiya	yuqumli kasalliklarning tez va keng tarqalish jarayoni.
hémorroïde	геморрой	gemorroy (<i>bavosiʻl</i>)	orqa peshovidagi yoki tashqarisidagi ogʻriqli, kichik shish.
hygiène	гигиена	gigiyena	salomatlik uchun muhim boʻlgan shaxsiy tozalik ishlari va chora tadbirlar.
glucose	глюкоза	glyukoza	organizm oson va tez ishlatishi mumkin boʻlgan shakar turi.
grippe	грипп	gripp	isitma, boʻgʻinlardagi ogʻriq va baʼzan ich ketish bilan kechadigan qattiq shamollash.
infection	инфекция	infeksiya	bakteriya yoki boshqa mikroblar orqali kelib chiqqan kasallik.
insuline	инсулин	insulin	oshqozon osti bezi ishlab chiqaradigan, qon tarkibidagi qand miqdorini nazorat qiluvchi modda. insulin ukollari qandli diabeti bor kasallarini davolashda ishlatiladi.
carie	кариес	kariyes	tishdagi kovak.
cataracte	катаракта	katarakta	bu koʻz muammosi boʻlib, bunda koʻz pardasi asta-sekin xiralashib koʻrish qobiliyati pasayadi.

			ko'z qorachig'iga yorug'lik tushirilganda u kul rang yoki oq bo'lib ko'rinadi.
cathéter	катетер	kateter	qovuqdagi siydikni chiqarish uchun ishlatiladigan rezinali naycha.
kyste (<i>m</i>)	киста	kista	organizmdagi odatdan tashqari xaltasimon, suv bilan to'lib o'sib borayotgan, bo'shliq.
coma	кома	koma	odamning o'ziga keltirib bo'lmaydigan darajada hushidan ketishi.
compresse	компресс	kompress	tananing biror qismiga qo'yiladigan taxlangan latta yoki bolishcha.
contraceptif	контрацептив	kontratseptiv	homiladorlikning oldini olish uchun ishlatiladigan har qanday usul.
cretinisme	Кретинизм	kretinizm	bolaning aqlan zaif va ko'pincha kar tug'ilishi.
xérophtalmie	ксерофтальмия	kseroftalmiya	"a" vitaminining yetishmovchiligidan kelib chiqadigan ko'zning odatdan tashqari qurib ketishi.
kwaschiokor	квасиоркоп	kvashiorkor (ho'l to'ymaslik)	oqsillarni yetarli darajada iste'mol qilmaslik natijasida kelib chiqadigan og'ir to'yinmaslik.
marasme	маразм	marazm	yetarli ovqatlanmaslikdan kelib chiqadigan kasallik.
mastite	мастит	mastit (ko'krak abscess)	bola emizilishining birinchi haftalarida yuz beradigan ko'krak infeksiyasi.
ménopause	Менопауза	menopauza	ayollardagi hayz ko'rish siklining tabiiy ravishda to'xtashi, ko'pincha bu 40-50 yosh orasida yuz beradi.
migraine	мигрень	migren	qattiq bosh og'riq, ba'zan faqat bir taraf lama bo'ladi.
paralyse	паралич	paralich (sho)	tananing biror qismini yoki butun tanani harakatlantira olmaslik.
spastique	спастический	spastik	miya shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan muskullarning odatdan tashqari surunkali

			qisqargan holati.
spasme	спазм	spazm	odam nazorat qila olmaydigan muskullarning birdan qisqarishi. ichakdagi spazmlar muskullarning tortishib og'rishiga sabab bo'ladi.

O'zlashma so'zlar xalqlar va davlatlar o'rtasidagi aloqalar, munosabatlar natijasidir. Rus tili tarixi boshqa xalqlar bilan madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalarni ko'rsatadi, bu davrda rus tilidan qabul qilingan so'zlarning ko'pligi mustahkamlanadi. Rus tili tomonidan qabul qilingan so'zlarni o'zlashtirishning bu jarayoni ijobiy hodisa bo'lib, u tilni yanada qobiliyatli va rivojlangan qilib boyitadi. Bu odatiy hodisa va hatto ma'lum vaqtlarda muqarrar.

Rus lug'ati ikkita asosiy guruhdan iborat: 1) til ajdodlarining so'zlari va 2) boshqa tillardan kelgan so'zlar. Chet so'zlarini o'zlashtirish zamonaviy tilning rivojlanish jarayonlaridan biri bo'lib, bu o'zaro ta'sir natijasida elementlarning bir tildan ikkinchisiga o'tishidir yoki ular o'zlari bir tildan ikkinchisiga topshirilgan elementlardir.

Bir tildan boshqa tilga o'zlashishning ikki xil yo'li mavjud: og'zaki va yozma. O'zlashishning ekstralingvistik sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- xalqlarning tarixiy aloqalari;
- yangi obyektlar va yangi tushunchalar uchun nom berish zarurati;
- faoliyatning ayrim alohida sohalarida millatning innovatsiyasi;
- moda, tilning shafqatsizligi;
- til resurslari iqtisodiyoti; manba tilining vakolati;
- tarixiy sabablarga ko'ra turli xil ijtimoiy qatlamlarning ko'payishi, yangi so'zni kutib olish;
- bir xalq madaniyatining boshqa madaniyatga ta'siri va hokazo.

Xulosa qilganda, tibbiyot uchun muhim sanalgan bunday atamalar kundalik hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtda pandemiya sharoitida tibbiy terminlar nutq faoliyatimizda eng ko'p ishlatilayotgan faol leksikani tashkil etmoqda.

References

1. Abu Ali ibn Sino « Tibbiy o'g'itlar » T. « Mehnat » 1991, q : 3.
2. Natalia Grabar «Terminologie medicale et morphologie. Acquisition de ressources morphologiques et leur utilisation pour le traitement de la variation terminologique». en 2004 à Paris 6 .

3. Боровкова Наталья Николаевна, Байкова Анна. « Les emprunts français dans la langue russe moderne. Les raisons de la baisse des emprunts français dans la langue russe moderne». ГБОУ гимназия № 505, Moskva, 2013 ;
4. H.A.Dadaboyev « O'zbek tili terminologiyasi », T., 2016. q : 10 ;
5. [Kolshanskiy G.V.](#) «Paralingvistika». Paperback: – January, 1, 2017.
6. Abduzuhur Abduazizov. «Tillardan tillarga» 2013 q: - O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasining 26 - soni ;
7. Françoise Kern-Coquillat « Dictionnaire des termes medicaux de 1914-1918 ». Crid 14-18, 2010 ;
8. www.journal.fedu.uz
9. Kodirov D. H. SPIRITUAL-MENTAL RESEARCHES OF ABU HAMID GHAZALI // European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS) – Vol. 2 No. 2, February 2021, -p. 73-74.
10. Qodirov D.H. GHAZALI AND DESCARTES: MODERN PHILOSOPHICAL DEVELOPMENT OF THINKING//Scientific Bulletin of Namangan State University, 2020. - №. 10., p. 256-260.